MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

*_______________________ hokimligi maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi _____________________ maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi __-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi _____________________________ning 2025-2026-o'quv yili 3-sinf o'qish savodxonligi fanidan III chorak uchun*

# DARS ISHLANMALARI

# DIQQAT

**Unutmang!!! Ushbu hujjat sizga hech kimga tarqatmaslik sharti bilan OMONAT qilib berildi. Agar ushbu hujjat sizga boshqalar orqali kelib qolgan bo‘lsa ham OMONAT hisoblanadi. Ushbu OMONATni faqat o‘zingiz uchun foydalaning. Hech kimga bermang, hattoki eng yaqin insoninggizga ham. Tijoriy maqsadda foydalanmang. Internet va Veb-sayitlarga joylamang. Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT QILMANG.**

**Telegram orqali admin Nabiyev Zokirjon bilan bog'lanish 90-530-68-66 yoki Nza456**

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘IBDO‘_______ ________________________**

## 2025-2026-o‘quv yili 3-sinf o‘qish savodxonligi fanidan III chorak uchun taqvim mavzu rejasi

| № | O‘tiladigan mavzular rejasi | Nazariy soat | Dars o‘tkazish muddati | Dars o‘tkazilgan sana |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Tabiat zanjiri | 1 | | |
| 2. | Tabiat bebaho ne’mat (audiomatn) | 1 | | |
| 3. | Nega? Zahro Hasanova | 1 | | |
| 4. | O‘q Hamza Imonberdiyev | 1 | | |
| 5. | Daraxtlar tabiat mo‘jizasi | 1 | | |
| 6. | Orol R.Tolib | 1 | | |
| 7. | Tabib ko‘klam R.Tolib | 1 | | |
| 8. | STO‘ | 1 | | |
| 9. | Bolim yuzasidan takrorlash | 1 | | |
| 10. | **Nazorat ishi-6** | 1 | | |
| 11. | Porloq yulduz Tamila Qosimova | 1 | | |
| 12. | Abu Rayhon Beruniy Pirmat Shermuhammedov | 1 | | |
| 13. | Va’da Xurshid Davron | 1 | | |
| 14. | Mening bolaligim Said Ahmad | 1 | | |
| 15. | Oygul bilan Baxtiyor H. Olimjon | 1 | | |
| 16. | Maqsadiga erishgan bolalar (audiomatn) | 1 | | |
| 17. | STO‘ | 1 | | |
| 18. | Rassomning yuksalishi | 1 | | |
| 19. | Bolim yuzasidan takrorlash | 1 | | |
| 20. | Bog‘bon va nihol rivoyat | 1 | | |
| 21. | Keksalarni hurmat qil Miltiqboy Xonnazarov | 1 | | |
| 22. | Oila baxti (Arman xalq ertagi) audiomatn | 1 | | |
| 23. | STO‘ | 1 | | |
| 24. | Ota-ona qalbi, ota-ona qadri P. Mo‘min | 1 | | |
| 25. | Ona qarzi Hind xalq ertagi | 1 | | |
| 26. | G‘aroyib tanlov Feruza Jalilova | 1 | | |
| 27. | Merosga kim munosib | 1 | | |
| 28. | Bolim yuzasidan takrorlash | 1 | | |
| 29. | **Nazorat ishi-7** | 1 | | |
| 30. | **STO‘** | 1 | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Sana:** | | | | |
| **Sinf:** | | | | |

**Mavzu: Tabiat zanjiri**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Rasmni so'zlar bilan ifodalab, she’rni o'qing. She’r mazmuni yuzasidan fikringizni bildiring.



Tabiat zanjiri

Rivoyat

Tog‘larning qor va muz bilan qoplangan bag'rida kunlardan bir kuni irmoq tug‘ildi. Tug‘ildi-yu, jildirab pastga intildi. Yo'lda o'ziga o'xshagan tiniqirmoqchalarni uchratib, ular bilan birlashib daryo hosil qildi. Daryo borgan sari kuch olib, yo’lida uchragan tosh va daraxtlarini ag‘darib surib ketar edi. Mana shu yerda u birinchi bor insonni uchratdi. Inson daryoga mehr va zavq bilan qaradi, uning suvlariga iliq qo‘lini botirdi. Daryo uning qo‘llarida mehrni, kuchni, irodani his qildi. Insonni zam inning egasi ekanini sezdi. Bundan keyin yo'lida uchragan har bir inson uning suvlaridan ichar yoki maza qilib cho'milar edi. Daryo esa bundan xursand bo'lib, oldinga intilardi.U yo'lida ildamlagan sari insonning kuchini his qilib borardi. Chunki odamzod uni tegirmonning g'ildiragini aylantirishga, boshqa o‘zandan o’qishiga majbur qilar, yo’lin i to‘g‘onlar bilan to'sar edi. Shunday bo'lsa- da, daryo yo'lidagi barcha to‘siqlarni yengib, oldinga intilardi. Daryo o‘z yo’lida borgan sari yomon odamlarni ko'proq uchrata boshlabdi. Ular o‘z manfaatlari uchun daryoni ifloslantirar, unga har xil chiqindilarni tashlashar, daryo esa chiqindilarni chetga chiqarib, tobora oldinga intilar, o‘simliklar va jonivorlarni xursand qilishga shoshilar edi. Zavod va fabrikalarga to‘la bo'lgan shahardan daryo butunlay kasal bo‘lib chiqibdi. Uning suvlarining rangi o'zgargan, moylar bilan qorishgan, zararli moddalar bilan zaharlangan, tubi chiqindilarga to’la edi. Daryoning hayotdan umidi uzildi. U juda sekinlik bilan shahardan chiqib, o'rmonga qarab oqdi. Yo'lda uchragan jonivorlar endi uning suvidan ichmas, odamlar unga jirkanib qaras har edi. Daryo shu zaylda oqib borar ekan, pokiza paytida birinchi bor uchratgan yo’lovchini uchratibdi. Odam unga achingancha g‘amgin qarab turardi. Daryo: “Yaxshiliklarim evaziga odamlar meni qanday ahvolga solganlarini k o ‘rib qo ‘y!” degandek uning oldida to ‘xtabdi. Endi uning o’qishga ham hali yo‘q, yo'lini butunlay to'sib qo'ygan chiqindilarni yorib o‘tishga ham majoli yetmas edi. Yo‘lovchining unga rahmi kelibdi, qayerdandir bolalarni topib kelibdi. Ular uzun ilgaklar bilan daryoni chiqindilardan tozalay boshlashibdi. Rahmdil kishi esa ketmon bilan daryo tubidagi og'ir chiqindilarni chiqarib ola boshlabdi. Shunda daryo tug'ilgan va bolaligi o‘tgan tog‘ bag'irlarini eslabdi. Bu odam va bolalarning unga yordam berishlariga ishonch paydo bo'libdi. Unda yana yashashga intilish hissi uyg‘ondi, chunki u hali juda ko'plarga kerakligini bilar edi.

irmoq - katta daryoga quyiladigan daryo, soy, jilg'a

majol- mador

Partadoshingizga rivoyatdan chiqargan xulosangizni ayting. Fikringizni taqqoslang. Nima uchun bunday xulosaga kelganingizni izohlang.

Rivoyat mazmuniga mos maqollar ayting.

Yodda tuting!

Suvni obi hayot - tiriklik suvi deb bejiz aytmaydilar. Suvsiz na tabiat yashnaydi, na biror jonzot yashay oladi. Tabiatning bebaho ne’mati bo‘lmish suvni doimo toza saqlash, suv manbalarini muhofaza qilish, undan tejabtergab foydalanish har bir kishining muqaddas burchidir.Tuzli suvda jismlar chuchuk suvlardagiga qaraganda yaxshiroq suzadi.Yog‘och suvdan yengil bo'lganligi uchun cho’kmaydi.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Rivoyatni o‘qing va mazmunini so'zlab bering. Suvni tejash va ifloslantirmaslik choratadbirlarini ishlab chiqing.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ _____________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Tabiat - bebaho ne’mat**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Berilgan harflarning oYnini o'zgartirib, bo‘limga mos so‘z hosil qiling. Hosil qilingan so‘z haqida fikr bildiring va uning ishtirokida savollar tuzing. Shu so'zga ma’nodosh so‘z toping.






Fikrlar mazmuni to‘g‘ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

1. Har tong saxovatli quyosh o‘zining munavvar nurlari bilan bizni siylamaydi. Qushlarning mayin ovozi dilimizga xushnudlik ulashmaydi.
2. Aslida tabiat in’om etgan har qanday tortiq biz uchun mo‘jiza, malham.
3. Ekologiyaning buzilishi nafaqat atrof-muhitga, balki insoniyatga ham ta’sir qiladi. Turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi.
4. Ona tabiatga bo'lgan hurmatsizlik bizga qimmatga tushadi. Bugungi kunda chiroyli xiyobonlarni ko'nglimiz tusab, u yerga oshiqamiz, lekin shunday chiroyli joylarni ham har xil chiqindilarga toldirib qaytamiz.
5. Bizning tabiat oldidagi burchimiz uni asrab-avaylashga o‘z hissamizni qo‘shish va boshqalarni ham bunga chaqirishdir**.**

Matn mazmunidan foydalanib, “Tabiat” so'ziga ta’rif bering. Ona tabiatni kimga o'xshatish mumkinligini ayting.

Eshitgan matningiz yuzasidan savol tuzing va partadoshingiz bilan ushbu savolni muhokama qiling. Xayolingizdagi eng go'zal tabiat manzarasini so‘zlar bilan tasvirlab, matn yarating. Bu manzarada nimalar bor?

Yodda tuting!

O‘zbekistonimiz qorli tog‘lari-yu yam-yashil adirlari, zilol suvlari-yu musaffo havosi, oltin tuprog‘i-yu shirin-shakar mevalari bilan mashhur yurtdir. Bolalar, ona zaminni asraylik, e’zozlaylik! Ko‘chalarimiz ozoda, serdaraxt, soya-salqin bo'lishiga hissa qo‘shaylik! Tabiatning in’omlaridan oqilona foydalanish, o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish hammamizning burchimizdir!

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** “Tabiat ne’matlari” mavzusida kichik matn tuzing.

**O‘IBDO‘:** ____________________ ____________ ____________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Nega?.. Zahro Hasanova**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**



Muallif o 'zi haqida: 1962-yili Toshkent shahrining Labzak dahasida tug'ilganman.Onam shoir Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" she'riy ertagini yoddan aytib bersalar, jon qulog'im bilan tinglardim.Ilk mashqlarimni onam ko'rib berganlar. Lekin to katta bo'lmagunimcha gazeta va jurnallarda chop etilmagan.

Nega?..

Zahro Hasanova

Tahririyatga ishga kelayotib, avtobus bekatida pista chaqib o'tirgan o 'quvchilarga ko'zim tushdi. Ularning oyog'i osti atrofdagilarning "havasini keltiradigan" darajada ivirsib bo'lgan edi. 12-14 yoshlardagi uch nafar o 'quvchi bolaning ust-boshi binoyidek, yonida papkasi, qo'lida esa qadoqlangan qog'oz paketdagi pista. Ular pista po'c h o g 'ini yerga tashlab atrofni to'zitayotganlari xayoliga ham kelmayotgani yuz-ko'zidan, o 'zini tutishidan shundoqqina sezilib turardi. Nega?.. Kechagina shu bekatni tuman obodonlashtirish xizm atidagi farroshlar supurib-sidirib ketishayotganini ko'rib, quvongandim. Oradan bir kun o'tib, bekat yana pista po'chog'i-yu, qog'oz va boshqa chiqindilarga



liq to‘libdi. Jahlim chiqdi:Bolalar bir-birlariga qarab jim qolishdi.
- Mana shu pista po‘chog‘ir biror qog‘ozga o‘rab, huv anavi - 10 metr naridagi axlat qutiga olib borib tashlasangiz bo‘ladi-ku, bolalarim, - dedim ularga.- Har kuni shu bekatdan ota-onalaringiz, qo'shnilaringiz, mahalla ahli va tengdoshlaringiz o‘qishga, ishga ketadilar. Bu ahvolni ko'rib, hammaning ta ’bi xira tortib, kayfiyati buziladi-ku. Bolalardan biri meni tushundi, shekilli, qo'lidagi pistasini papkasiga solib, o'rtoqlariga qaradi va “Yig'ishtiringlar” , dedi. O‘rtoqlari darrov uning aytganini qilishdi...Odamzod - tabiatning bir bo‘lagi. Tabiat xushhavo, atrof ozoda va go‘zal bo‘lsa, odamzod ham ana shu go‘zallik bag‘rida sog‘lom va ko'rkam yashaydi. Tabiatning rang-barang jilvasidan quvonadi, kayfiyat oladi, ruhi tetiklashadi. Bularning hammasi kishiga ajib kuch-g‘ayrat bag‘ishlaydi. Ruhi tetik, s og‘lom odam esa yaxshi o ‘qiydi, ezgu ishlarga qo‘l uradi, tog‘ni talqon qilishga qodir, bunyodkor inson bo'lib voyaga yetadi. Biz esa sizlarni kelgusida har tomonlama sog‘lom va barkamol bo’lib ulg'ayishingizni istaymiz.
tahririyat - qo‘lyozma matn lari ustida
ishlab, nashrga tayyorlab berish bo'limi
ivirsib - betartib holga kelgan
jilva - tovlanish, tuslanish
Quyidagi iboralar qatnashgan gaplarni topib o’qing va mazmunini izohlang.
*1. Tog‘ni talqon qilish 2. Ta’bi xira*
Hikoyadagi ikkinchi gapni o‘qing va fikringizni bildiring.
Hikoya mazmuniga mos reja tuzing.
Hikoyadagi so'zlar ishtirokida so'zlar zanjirini hosil qiling.
*Namuna:pista-axlat*
**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.
**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Hikoyani o‘qing. Shaxsini o‘zgartirib, qayta so‘zlab bering.

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ ______________
*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: O‘q. Hamza Imonberdiyev**
**Maqsadlar:**
**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**FK - fanga oid kompetensiyalar**
FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya
FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.
**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**



Hamza Imonberdiyev 1954-yil 21-dekabrda qo‘shni Qozog‘iston Respublikasining Chimkent viloyatiga qarashli Suzoq qishlog’ida dehqon oilasida tug'ildi. Shoir uzoq yillar “Tong yulduzi” gazetasining adabiyot bo‘limini boshqardi. Hamza Imonberdiyev “Cho’lpon” nashriyotida muharrir vazifasida xizmat qildi. Lining “Quvnoqlar quvonchi” , “Shokoladxo‘rlar” , “G ‘aroyib pufak” , “ Kulgi shaharchasi” singari o'ndan ortiq kitoblari nashr etildi.

O‘q
Hamza Imonberdiyev

Nafasin bir dam rostlab,
Uchib ketdi kamon o‘q.
Yon-veriga boqmasdan
Uchib borar hamon o‘q.
O‘yga botib borar u,
Qora ajal qo‘lida.
Kelib qoldi ro‘baro‘,
Ona Jayron yo‘lida.

Quyosh ko‘kda qotdi tosh,

Nafasini yutgancha.
Gullar ma’yus egdi bosh,
O‘zligin unutgancha.
Qochar Jayron quyunday,
Tuyog'idan chaqnar o ‘t.
- Jon o‘q, tegma, uyimda
Kutar bolam, ko‘zi to‘rt!

O‘q voz kechib nishondan,
O‘tib ketdi bir yondan.
Hamon uchib borar u,
Qora ajal qo'lida.
Kelib qoldi ro‘baro‘
Keksa Chinor y o ‘lida.
- Hoy, ko'zingga qara-da, -
Titrab dodladi Chinor.
- Bag‘rimdagi inlarda
Axir, polaponlar bor.
O‘q voz kechib nishondan,
O‘tib ketar bir yondan.
Noilojlikdan oxir
Sabr kosasi to‘lib,
Shahd bilan pastga sho‘ng‘ir,
Yerga sanchilmoq bo‘lib.
Titrab ketar Yer nogoh:
- Sensiz ham, ey masxara,
ro ‘baro‘ - qarama-qarshi kelish
Yurak-bag‘rim o'chmas do’g,
Yuz mingta bitmas yara.
Ilojsiz, nochor qolib,
Yo‘lda davom etar o‘q.
O‘qligidan ming nolib,
Olislarga ketar o‘q.
Yer dumaloq emasmi,
Holdan toygan payti u.
Buni qarangki, asli
Uchgan joyga qaytdi u
Xuddi shu payt shum kishi
Boshqa o‘qni joylardi.
Alam-la qayrab tishin,
Kimlarnidir poylardi.
U quloq ham qoqmadi
Ajalning sharpasiga.
Uchib kelib sanchildi,
O‘q shundoq orqasiga...

She’rda ishtirok etgan qahramonlarni aniqlang. She’r qahramonlarining so‘zlari berilgan misralarni o‘qing. Quyidagi satrlarni izohlang:
Yurak-bag‘rim o‘chmas dog‘,
Yuz mingta bitmas yara.
She’rda ajratilgan so'zlarning ma’nosini tushuntiring. She’rdagi o‘qqa ta’rif bering.
Berilgan savollarni she’r mazmuniga mos holda to'ldirib tuzing.
A g a r ... bo‘lsa nima boladi?
Tasavvur qilaylik...

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** She’rni ifodaii o‘qing. She’rdan olgan taassurotingizni yozing.

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ ______________
*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Daraxtlar - tabiat mo‘jizasi**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Yurtimizda o'suvchi o'simlik turlariga ikkitadan misol ayting. O‘simliklaming foydasi haqida fikringizni ayting.




Daraxtlar - tabiat mo‘jizasi



Jannatmakon yurtimizning tabiati betakror, o ‘simlik dunyosi boy. Bunda har bir daraxtning o‘ziga xos xislati, xosiyati bor. Deylik, xalqimiz chinorni umrboqiy daraxt deb biladi. Yurtimizning turli joylarida ming yillik chinorlar bor. Ular nodir tarixiy yodgorlik. Masalan, Surxondaryoning Sayrob qishlog'idagi ko‘hna chinor ichida bir vaqtlar maktab bo'lgan.Mamlakatimiz tarixida archadaraxtining bir qancha turlari uchraydi. Tog'larda mahalliy aholi “C ho'ponarcha” deb ataydigan har bir archa - bir quduq qiymatiga teng qishda qorni, yozda namlikni saqlaydi. Bunday-archalar juda nodir Surxondaryo viloyati Sariosiyo tum anida tatum (tuz) daraxti o ‘sadi. Mahalliy

aholi tuz daraxti deb ataydigan tabiatning bu ne’mati ajabtovur xislatga ega. Uning mevasini bemalol oziq-ovqatga tuz o‘rnida ishlatish mumkin. Dunyoning hech bir joyida uchramaydigan bu “tuz daraxti” mamlakatimizning boshqa biror hududida o‘smasligi kishini lol qoldiradi.Tug'dona daraxti haqida eshitganmisiz ? Tug’ - yalov, bayroq, dona esa - daraxt m a’nosini bildiradi. Lekin nima uchun tug‘dona, ya’ni bayroq daraxt deb nomlanishi ko‘pchiligim izga noma’lum. Rivoyat qilishlaricha, tog‘ qo‘ynida joylashgan mamlakatlarning biriga yov yurish qilibdi. Xabarchilar barcha qishloq, ovullarni xatardan ogoh etib, jangga chorlaydi. Odamlar shu atrofda o'sadigan daraxtlardan kaltak va cho'qmor yasab, Vatan uchun hayot-mamot jangiga kiradi. Hatto qariyalar va yosh bolalar ham qo‘llarida daraxt novdalarini bayroq kabi boshlari uzra baland ko‘tarib, hayqirganlaricha, jangchilariga madad berishadi. Birgalashib yovni butunlay mag’lub etgan el og‘ir kunlarida madad bo’lgan daraxtni e’zozlab, tug‘dona - bayroq daraxt deb ataydi. Tug‘dona tosh kabi mustahkam daraxt. U toshni yorib chiqib o'sadi. Tug‘dona yog'ochidan yo‘nib yasalgan do'mbiraning toza va jarangdor tovushi odamlarga kuch, g'ayrat, shijoat, ko'ngillariga orom bag'ishlagan.

yo'nmoq - biror narsani yasash maqsadida kesmoq
ajabtovur - ajablantiradigan
cho'qmor - to'qmoq shaklidagi qadimiy jang quroli

“Shaxmat taxtasi” mashqi. Shifrlangan so‘zlarni toping.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 4 | ch | i | d | g‘ |
| 3 | k | a | e | u |
| 2 | n | x | r | o |
| 1 | q | y | m | t |
| | A | B | D | E |

1. B3, D2, A4, B3
2. A4, B4, A2, E2, D2
3. E1, E3, E4, D4, E2, A2, B3
4. E1, B3, E1, E3, D1
5. A1, B3, B1, B4, A2
6. A1, B3, B1, D2, B3, E4, E2, A1
7. E1, D3, D2, B3, A3

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Matnni o‘qing va mazmunini so'zlab bering.Daraxtlar haqida qiziqarli ma’lumotlar to'plang va uni do‘stlaringizga aytib bering.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Orolim**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**



Rauf Tolib 1946-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Shoirning “ Ona yurt” , “ Eshitmadim de m an glar” , “Yurt mehri” , “Osmon bog’” , “ Mirjalol nega lol?” , “Sehrgar do‘stim bor” , “Qiziq tomosha ” , “ Hamma ha y ron” , “Jirafaning bo‘yni nega uzun?” kabi o'ndan ortiq kitoblari nashr etilgan.

Aralashtirib berilgan harflardan so'zlar hosil qilsangiz, yurtimizdagi ko'llar nomini bilib olasiz.




Orolim

Rauf Tolib



- Ey bolajon, bolajon,
Qanday o'ylar dilingda?
O‘ltiribsan parishon,

Bah .

- Mehmon g‘ozlarim, ko‘ring,
Tabiat topdi zavol.
Suvsiz qolib daryolar,
Qurib borm oqda Orol.
- Ey, bolajon, bolajon,
Qo‘y, o‘rtanma alamda.

Biz-la yurt kez,
Yo‘llar osh,
Dengiz ko‘p-ku, olamda?...
- Dengizlar ko‘p,
Ko'llar ko‘p,
Olam kengdir, kattadir.
Men-chun yurtim yagona,
Ona Orol bittadir.

parishon - bir yerga to'planmagan, tarqoq
zavol - halokatga yuz tutgan
She’rni rollarga bolib o‘qing.
She’r qahramonlariga o‘z munosabatingizni bildiring. Qofiyadosh so'zlarni aniqlang.
Bilasizmi, Orol dengizi aslida ko‘Ldir. U qadimdan dengiz kabi katta, suvi sho‘r va taxir bo‘lgani uchun dengiz deb atalgan. Hozir esa qurib, bir nechta ko‘llarga ajralgan. Orol dengizi suvining keskin kamayishi shamol ta’sirida yon-atrofga tuz tarqalishiga olib keldi. Natijada, yer sho‘rlanishi kabi muammolar avj oldi. Odamlarning salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.
O‘qiganlaringiz asosida Orol haqida
- 3 ta fikr ayting;
- 2 ta savol tuzing.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.
**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** She’rni ifodali yod oling.

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ _______________
*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Tabib  ko'klam. R.Tolib**
**Maqsadlar:**
**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**FK - fanga oid kompetensiyalar**
FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya
FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.
**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini  bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**



Tabib ko‘klam

Rauf Tolib

- Ayting, ona daraxtga
Bolta urar kim?
Qandoq?
- Umi, bir nihol ekib
Ko'kartirm agan mutloq.
- Kim dir go‘zal gulzorni
Qilibdi rosa payhon.
- Chunki u gul husniga
Boqmagan-da, lol, hayron.
- Sho‘x, sayroqi qushlarga
Kim u ko'targan miltiq?

- U qush tilin anglamas,
Unga begona qo'shiq.
- Ona y r bag‘ri kuygan,
Tabiatda qora dog’.
Ayting, yashil olamga
O‘t qo‘yar qaysi ahmoq?
- Tabiatni, tog'larni,
Eh, vayron etar Odam...
Har yili yaralarin
Davolar tabib ko'klam.

payhon - yo‘q qilmoq
m utloq - mutlaqo

She’rni rollarga bolib o'qing.
Quyidagi rasmlarni ifodalovchi so‘zlar qatnashgan misralarni topib o‘qing.




**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.
**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** She’rni yod oling. She’r mazmuniga mos matn tuzing.

**O‘IBDO‘:** ________________________ ______________ ______________
*(imzo)* *(sana)*

## 8- dars STO’

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Sana:** | | | | |
| **Sinf:** | | | | |

**Mavzu: Bo‘lim yuzasidan takrorlash**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Berilgan maqol va hikmatli so'zlarni o‘qing. Ular bo'limdagi qaysi asarga mos keladi?



G‘alati ovchi

Rauf Tolib

- Ha, do‘stim, dimog'ing chog‘.
- Ovdan qaytdim , ....
- Dadang bilan sen yana
Ovlabsan-da, bedana?
- Yo‘q.
- To‘qayga qo‘yib ...
Ovladingmi yo quyon?
- Yo‘q.
- Yo qushni olib mo'ljal
Qildingmi uni ...?

- Yo‘q.
- Ha, topdim , soydan ...
Tutib kelgansan, aniq.
- Yo‘q.
- Nima ovlading, voy-vuy,
O‘zing shartta ayt, qo‘y
- Men ...lam ing chiroyin,
... kuyin ovladim.
Tushunolmay hech gapga
Do‘stin boshi g ‘ovladi.

Shifrlangan harflarni aniqlang va so'zlarni o'qing.
Topgan so'zlaringiz ishtirokida matn tuzing.




**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.
**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** “Tabiatni asrash burchimiz” mavzusida tavsiyalar ishlab chiqing.

**O‘IBDO‘:** ____________________ ____________ ____________
*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Nazorat ishi-6**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini  bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

**1-topshiriq — Matnni diqqat bilan o'qib chiqing va savollarga javob bering:**

**Matn:**

*Kunning issiq paytida Komil daraxt soyasiga dam olib o'tirgan edi. U mevalar daraxtda shirin-shirin pishganini ko'rib quvondi. Daraxt tagida uchib yurgan kapalaklar unga zavq bag'ishladi. Komil qimmatli lahzalarni his qilib, bog' bo'ylab biroz sayr qildi. So'ng uyga qaytib, bugun ko'rganlarini oilasiga aytib berdi.*

**Savollar**

**1) Matnda nechta gap bor?**

Javob: _________

**2) Quyidagi gaplardan to'g'ri ketma-ketlikda joylashganlarini toping va harfini yozing:**

A) Komil bog' bo'ylab sayr qildi.

B) Komil daraxt soyasida dam oldi.

C) Kapalaklar unga zavq bag'ishladi.

D) Komil uyga qaytdi.

**Javob:** ____________

**3) Quyidagi so‘zlardan ma’nosi bir-biriga yaqin bo‘lganini belgilang:**
a) shirin — ___________
b) zavq — ___________
c) biroz — ___________
Variantlar: ozroq, yoqimli, achchiq
**Javob:**
a) ___ b) ___ c) ___
**4-topshiriq — Matn bo‘yicha qisqacha yozing:**
*Matnda kim haqida va u nima qildi?* (2–3 satr)

**5-topshiriq — Lug‘at boyligi**

1. *“Soyada” so‘ziga sinonim yozing:* ___________
2. *“Pishgan” so‘zidan yangi so‘z yasang:* ___________

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.
**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** “Tabiatni asrash burchimiz” mavzusida tavsiyalar ishlab chiqing.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________
*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Porloq  yulduz. Tamila Qosimova**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini  bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Ahmad al-Farg‘oniy Farg’ona vodiysining Qubo (hozirgi Quva) shahrida dunyoga keldi. Uning to‘liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al- Farg'oniy. Yosh, qobiliyatli va tirishqoq Ahmad dastlab Quboda, so‘ng o‘sha davrning madaniy markazlaridan bo‘lgan Axsi shahrida an’anaviy fanlardan ta ’lim olib, olim bo‘lib yetishdi.





Porloq yulduz

Tamila Qosimova

Alloma Ahmad al-Farg‘oniy endigina usturlobni Mushtariy yulduziga to‘g‘rilagan edilar, shogirdi o‘g‘ilchasi bilan kelib qoldi. Alloma bir soniya bolaga nazar soldilar. Bola yoqimtoy, istarali edi. Porloq ko‘zlarini allomaga tikib turardi. Uning m a’noli, tim qora ko‘zlari allomaga yoqib qoldi. Bola ko'ksiga qo‘lini qo‘yib, egilib salom berdi.- Va alaykum assalom , bo‘tam, ismingiz nadur?!- Ismim Ahmaddur.- Barokallo, otdosh ekanmiz. Bolakayning ko'zlari porlab:- Hazrat alloma, meni kichik Ahmad deya qoling, - dedi biroz uyalib. Alloma bolakayning dadiiligidan quvondi va usturlobga yaqin olib keldi.- Qani, kichik Ahmad, yaqinroq keling-chi, biz hozir yulduzla r sayrini tomosha qilamiz. Kichik Ahmad sevinib ketdi. Chunki ko'pdan buyon u otasidan yulduzlarni ko‘rsatishni iltimos qilib yurar edi. Ammo otasi: “ Ulug‘ allomaning ishiga xalal berasan” , - deb uni olib kelmasdi. Bugun allomaning chehrasidagi nurli tabassumni ko'rib, ota-bola yayrab ketishdi. Kichik Ahmad usturlob orqali samodagi minglab yulduzlarni tom osha qilardi. Yulduzlar jimir-jimir qilgani sari kichik Ahmadning hayrati osha bordi. Alloma usturlobni yulduzga to‘g‘rilab:- Mana, bunisi sizning yulduzingiz. Boqing, mitti bo‘lsa-da, yoniq, porloqdir, - dedilar. Kichik Ahmad bu kichik yulduzni uzoq tomosha qildi. So‘ng usturlobdan ko’zini olib:- Chindan ham bu mening yulduzimmi? Sizga tashakkur, hazrat alloma! - dedi. Kichik Ahmad shunday sevindiki, hatto otasi malla chakmon bilan qizil etikcha olib berganda ham bunchalik sevinmagan edi. Ota-bola quvonchlarga to'lib uyga qaytdilar. Kichik Ahmad tez-tez otasi bilan kelib, o ‘z yulduzini tomosha qilib ketardi. Uni ishga ko‘milib o‘tirgan alloma xush kutib olar va mehr bilan kuzatib qolardi. Biroq bir haftagacha kichik Ahmaddan ham, allomaning shogirdidan ham darak bo'lmay qoldi. Bundan alloma qattiq tashvishga tushdilar. Ma’lum bo‘lishicha, kichik Ahmad betob bo’lib qolgan ekan. Alloma o‘sha kuniyoq kichik Ahmadni ko‘rgani bordilar. U to‘shakda rangi za’faron, behol yotardi. Alloma o‘zlari bilan olib kelgan dorilardan ichirdilar. So‘ng kichik Ahmadga:- Yulduzlar sizga salom yo‘lladilar, - dedilar. Kichik Ahmad yostiqdan boshini ko‘tarib so'radi:- Hazrati alloma, yulduzlar ham so‘ylaydilarmi?- Albatta. Ular bilan so'zlashishni sizga o'rgatur men, dedilar. Kichik Ahmad tuzalib ketdi. U yulduzlar bilan so‘zlashish uchun buyuk alloma Ahmad al-Farg‘oniyning huzuriga yo‘l oldi...

usturlob - yulduzlarning osmonda joylashish
o'rnini aniqlovchi asbob

chakmon - ustki kiyim turi

za’faron - sarg'ish rang

Odam tunda oddiy ko‘z bilan osmonga tikilib, ko‘pibilan uch ming yulduzni ko‘ra oladi. Lekin hatto kichkina teleskoplar yordamida millionlab yulduzni sanash mumkin. Yer osmonida ko'rinadigan eng yorug‘ yulduzlarni qadimgi olimlar yulduzlar turkumiga birlashtirishgan va ularga afsonaviy nomlar berishgan. Katta ayiq, Kassiopeya, Aravakash va boshqa yulduzlar turkumlari shu tarzda paydo bo‘lgan

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Hikoyani o'qib, qayta so‘zlab bering. Yulduzlar haqida qiziqarli ma’lumotlar toping.

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Abu Rayhon Beruniy**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Abu Rayhon Beruniy Xorazmning qadimiy poytaxti Kot (Kat) shahrida tug'ilgan. Yoshligidanoq ilm-fanga juda qiziqqan. Ayniqsa, matematika, astronomiya, geografiya va tabiiyot fanlariga doir k o ‘p risolalarni o‘qib o'rgangan. Shu bilan birga qadimgi xorazm tilini, turkiy, fors va arab tillarini puxta o'rganib olgan. U 75 yil umr ko‘rib, shu davr ichida ko‘p kitob va risolalar yaratgan



Abu Rayhon Beruniy

Pirmat Shermuhammedov

Bugun juma. Havo ochiq, osmon artilgan shisha singari tiniq, musaffo. Quyosh nayza bo‘yi ko'tarilgan. Yigirma besh yoshlar chamasidagi o'rta bo'yli, bug'doyrang, xushqomat Abu Nasr bugun-erta sahardanoq o‘z yordamchilari bilan qishloq chetidagi tepalik ustida usturlob o'matish bilan mashg‘ul. Bir mahal uning yoniga qoramag'iz, bo‘z ko‘ylak, bo‘z ishton kiygan oyoq yalang bola kelib o'tirdi. Uning yuzi, ko‘zi va chehrasida chuqur hayajon shundoqqina sezilib turardi.- Yana keldingmi? - deydi Abu Nasr uni erkalagan ovozda. - Keldim, - deydi bola hayajonini yashirmay.- Menga yordamlashib yuborasanmi? - Albatta! - Bola dadillanib unga tomon suriladi. - Bu nima ustoz? - Usturlob. - Usturlob deysizmi? - Men bu asbob bilan Quyosh va yulduzlar harakatini kuzataman.- Qanday qilib kuzatasiz? Kunduzi osmonda hech narsa ko‘rinmaydi-ku! - Tunda kuzataman-da, - deydi Abu Nasr jilmayib. - Men ham kuzatsam

bo'ladimi? - Sen hali yoshlik qilasan. Katta bo'lganingda hammasini bilib olasan. - Hozir bilgim kelyapti, ustoz.- Isming nima?- Muhammad.- Kimning o‘g‘lisan?- Otamning ismi Ahmad.- O‘qish, yozishni bilasanmi?- Bilaman. - Nimalarga qiziqasan? - Har tunda osmon to’la yulduzlarni kuzataman. Biram yulduzlar bilan gaplashgim keladiki. Siz-chi? Siz yulduzlarning tilini bilasizmi? - Ha. Tushunaman.- Menga ham O‘rgating.- O‘rgataman.- Aldamaysizmi?- Aldamayman. Ammo bir shartim bor.- Ayting- Men bilan shaharga ketasan.- Xo‘p. Faqat ota-onam rozi bo’larmikin ?- Otangga o‘zim tushuntiraman. Shu kuni kechqurun Abu Nasr vaqt topib, qishloq chekkasidagi ko‘rimsiz bir hovliga kirib bordi...
qoramag'iz - qorachadan kelgan
Hikoyadan Abu Nasr va Muhammadning
suhbatini o'qing.
Qahramonlarning tashqi ko'rinishi tasvirlangan
gaplarni topib o'qing.
Hikoya qahramonlariga ta’rif bering.
“Nayza bo‘y i”iborasini izohlang.
Hikoya mazmuniga mos reja tuzing.
Hikoyadagi voqealar rivojini davom ettiring.
**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.
**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Hikoyani rollarga bo'lib o‘qing

**O‘IBDO‘:** ____________________ ______________ ______________
*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Va'da . Xurshid Davron**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Maqolni izohlang.

Har mevaning po'chog'i bor,
Har so'zning o'lchovi bor.

Va'da

Xurshid Davron



Sohibqiron Amir Temur Ko'ragoniyning nabirasi Mirzo Ulug'bek bolaligidan boshlab zakovat va farosat sohibi bo'lganlar. U kishi ko'p bilimlarni egallab, ustozlarni benihoya hurmat qiluvchi, ustozlari Mirzo Ulug'bek yosh bola paytida Amir Temur Rum mulkidan olib kelgan birdonishmand unga saboq bergan ekan. Rumlik donishmandning bir odati bor ekan: agar shogirdi biror jumlani yanglish o'qisa yo boshqa bir xatoga yo'l qo'ysa, boshini ko'tarib unga qarab qo'yar ekan. Bir kuni Mirzo Ulug'bek ustozi oldida bir kitob o'qir edi. Kitobda " Bo'lgan, uddasidan chiqmagan narsangizni

nega va'da qilasiz?" degan jumlani o'qigach, ustozi boshini ko'tarib, unga bir qarab qo'yibdi. Ulug'bek Mirzo: " Ehtimol, yanglish o'qigan bo'lsam kerak" , deb jumlani diqqat bilan qaytadan o'qibdi. Ammo ustozi bu gal ham boshini ko'tarib, unga qarab qo'yibdi. Mirzo Ulug'bek saboqdan keyin bobosi yoniga kelib:- Bobojon, ustozimga biror narsa va'da qilgan bo'lsangiz, darhol va'dangizga vafo qiling, - deb bo'lgan voqeani Amir Temurga aytib beribdi. Amir Temur nabirasining hikoyasini eshitib:- Ustozing mendan Rumda qolib ketgan kutubxonasini olib kelishga odam yuborishimni so'ragan, " Bu kitoblar menga emas, nabirangizga kerakdur" , - degan edi. Men odam yuborishga va'da qilgan edim, ammo yodimdan chiqib qolgan edi, - debdi u nabirasining zukkoligidan mamnun bo'lib. So'ng rumlik donishmandga bergan va'dasini darhol bajo keltirishga kirishibdi.

yanglish - xato

uddasidan kelmoq - bajara olmoq

darhol - tezda

• Asardan Amir Temur va Mirzo Ulug'bekning suhbatini o'qing.
• Mirzo Ulug'bek haqida aytiigan gaplarni topib o'qing.
• Hikoya qahramoniga ta'rif bering.
• Hikoya mazmuniga mos reja tuzing.
• O'rganilgan mavzu yuzasidan fikringizni ayting hamda savollar tuzing.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mazuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O'quvchilarni rag'batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** Hikoyani o'qing. Mazmunini so'zlashga tayyorlaning.

**O'IBDO':** ________________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Mening bolaligim. Said Ahmad**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**



Said Ahmad 1920-yilning 10-iyunida Toshkent shahrining Samarqand darvoza mahallasida tug'ilgan. Uning bolaligi Oybek, G'afur G'ulom singari adiblar davrasida o'tdi. Tabiatan qiziquvchan, tinib-tinchimas Said Ahmad adabiyotga kirib kelguncha juda ko'p sohalarda o'zini sinab ko'rdi: plakatlar yozdi, artist bo'lishga urinib ko'rdi, doktorlik maktabida o'qidi, qurilish texnikumida tahsil oldi, rassom lik maktabiga qatnadi, mashhur suratkash Pensonga shogird tushdi. U o'zini adabiyotda topdi. Adib " O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoniga sazovor bo'lgan . " D o'stlik" , " Buyuk xizmatlari uchun" ordenlari bilan taqdirlangan.

Mening bolaligim

Said Ahmad

Sizning yoshingizda men juda kam uxlardim. Ayniqsa, yoz kechalari charaqlagan osmonga qarab yotardim. Mana shu miltirab turgan yulduzlarning narigi tomonida qanaqa joylar bor ekan, deb o'ylardim . Tezroq katta bo'la qolsam-u, dunyodagi jami sirlarni bilib ola qolsam, derdim. Samarqand darvoza guzari shundoqqina uyimizdan ko'rinib turardi. Yozi bilan to 'rt-besh marta dorbozlar kelishardi. Ularning o'yinlarini ko'rib, birdan dorboz bo'lgim kelib qoldi. Bog'imizdagi terakka arqon tortib, langar cho'p bilan chiqishini mashq qila boshladim. Yiqilib, qo'lim sindi.

Bir oy o‘ng qo‘lim taxtakachlanib, azob tortganman. Shunda ham tavba qilmay, yana mashq qila boshladim. Yana yiqilib, chap qo'lim ham sindi. Ana shundan keyin dorbozlikdan aynib, rassom likka qiziqib ketdim. Bayram arafasida xo’jaliklardan maktabga kelib, albomlar tashlab ketishardi. Darsdan keyin to qorong‘i tushguncha shior yozardim. Yangi tashkil bo'lgan muassasalarga nomlari bitilgan lavhalar yozganman. Bu orada arab alifbosi tugatilib, lotin alifbosiga ko'childi. Endi shiorlarni, nom lari bitilgan lavhalarni qaytadan lotin alifbosida yoza boshladim. Har xil suratlar ishlab, gazetaga olib boraman. Ba’zilarini “ Rassom Saidahmad asari” deb chiqaradigan bo’lishdi. Fotosuratkashlikka ishqim tushdi. Fotoapparat sotib oldim. O‘zim o'rganib olganimdan keyin “Yangi hayot” maktabida foto to'garak ochib, bolalarni o‘rgata boshladim . Gazetalarda “Saidahmad fotosi” chiqa boshladi. Rassomlik bilan suratkashlik bahona bo‘ldi-yu, matbuotga yaqinlashdim .Qo‘lda chizgan rasmlarim, fotosuratlarimga aloqador xabarlarni o‘zim yoza boshladim . Hamon o‘sha paytda olgan qalamimni qo‘ldan qo‘ymadim . Ko'plab hikoyalar, romanlar, pyesalar, kinossenariylar yozdim. Nimaiki orzu qilgan bo'lsam, hammasiga erishdim. Mabodo taqdir meni o ‘sha sakkiz yoshimga qaytarsa, baribir yana xuddi shu ishimni davom ettirardim. Chunki adabiyot va san’at qon-qonim ga singib ketgan. O‘z kasbimni jon- jonim dan yaxshi ko'raman.
langar cho'p - dorda muvozanatni saqlash uchun
dorboz qo‘lda tutadigan yo‘g‘onroq uzun tayoq

1. Hikoyani qismlarga bo'ling.
2. Muallif qiziqishlari bayon etilgan gaplarni hikoyadan topib o'qing.
3. Hikoyadan uning asosiy g‘oyasi ochib berilgan qismini topib o'qing.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Hikoyani o‘qing. Mazmunini so zlashga tayyorlaning.

**O‘IBDO‘:** ________________________ ______________ ______________
*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Oygul bilan  Baxtiyor**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini  bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**



Atoqli  o'zbek  shoiri  Hamid Olimjon  Jizzax  viloyatida  tavallud topgan.  Yoshligidan  onasi  Komila aya  va  bobosi  Mulla  Azimdan ko'plab  xalq  ertaklari,  doston  va qo'shiqlarni  tinglab  ulg'aygan. Hamid  Olimjon  gazeta  va jurnallarda  jurnalist  va  muharrir sifatida  ishlagan,  shu  bilan  birga ijodiy  faoliyatini  ham  davom  ettirgan. U  baxshilar ijrosidagi  dostonlardan  ilhomlanib,  "Oygul  bilan Baxtiyor" ,  "Semurg1"  kabi  yirik  asarlar  yaratadi.

Ertaklardan  olingan so'zlar qatorida qaysi so'z ortiqcha ekanini toping.



Oygul bilan  Baxtiyor

Hamid Olimjon

Dostondan  parcha
Bolalik  kunlarimda,
Uyqusiz  tunlarimda,
Ko‘p  ertak  eshitgandim,
So‘ylab  berardi  buvim.
Esimda  o ‘sha  damlar:  .
O‘zi  uchar  gilamlar,
Tohir-Zuhra,  Yoriltosh,
Oyni  uyaltirgan  qosh.
O‘t  bog'lagan  qanotlar,
Beqanot  uchgan  otlar.
Baxtiyor  bilan  Oygul,
Qiz  bo'lib  ochilgan  gul.

So'ylaguvchi  devorlar,
Bola  bo‘p  qolgan  chollar.
Buvimning  har  qissasi,
Har  bir  qilgan  hissasi
Fikrimni  tortar  edi,
Havasim  ortar  edi.
Tinglar  edim  betinim,
Uzun  tunlar  yotib  jim.
Seza  olardim  kuchin,
Ko‘pi  yolg'on,  ko‘pi  chin.
Ammo  Oygul-Baxtiyor
Ertagini  u  takror
Qilar  edi  har  kechin...




Doston  bu  -  liro-epik janrdagi  badiiy asar.  O‘zbek xalq  og'zaki  ijodi  va  o'zbek  mumtoz adabiyotida keng  tarqalgan.  Dostonda  muayyan  voqea  hikoya qilinadi.  Undagi  voqea  keng ko‘lamda  bo‘lib,bir  yoki  ikkita  bosh  qahramon  ishtirok  etadi, personajlar  esa  ko‘p  bo‘ladi. Hikoyani qismlarga  bo'ling.

Muallifning qiziqishlari  bayon etilgan gaplarni o‘qing. Hikoyadan  uning asosiy g'oyasi ochib berilgan qismini topib o'qing.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** She’rni  ifodali yod oling.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ _____________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Maqsadiga erishgan bolalar**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Maqsadiga erishgan bolalar” audiomatnini diqqat bilan tinglang





Chet el kompozitorlari ichida yoshligidan butun dunyoga mashhur bo‘lgan kompozitor avstriyalik Volfgang Am dey Motsartdir. U 1756-yil 27-yanvarda Avstriyaning kichik bir shaharchasi bo‘lmish Zalsburgda saroy kompozitori organchisi Leopold Motsart oilasida dunyoga kelgan. Motsartning musiqaga bo'lgan qobiliyati 3 yoshidan boshlab yaqqol sezila boshlagan. U klavesinda soatlab shug'ullanar, opasi 8 yoshli Annaning chalgan kuylarini bir eshitishda xatosiz aynan qaytarib chalib bera olardi. Otasi Leopold o‘g‘lining musiqiy qobiliyatiga tan beradi va Volfgang bilan ham astoydil s h u g ‘ullana boshlaydi.Volfgang M otsart 6 yoshida klavesinda yaxshi chala oladigan darajaga erishadi va birinchi asarini, kichik hajmdagi pyesalarini yoza boshlaydi.Yetti yoshga kirganda Motsart opasi, 12 yoshli Anna bilan birgalikda Fransiya qirolining qarorgohi - Versal saroyida konsert berishadi.

Qadimda hindlar to‘rt kishi ishtirokida o'ynaladigan “chaturanga” o‘yinini o‘ynaganlar. Har bir ishtirokchining figuralardan tashkil topgan o‘z armiyasi bo'lgan. Figuralar sakkizga sakkiz o‘lchamli kvadrat doskaning to‘rt tarafiga qo‘yilgan. O‘yinchilar bir-birlariga qarshi o‘ynashgan. Figuralar m a’lum qoida bo‘yicha harakatlangan. Kimki raqib figuralarni yutsa, o'yinda g'olib bo’lgan.Keyinchalik bu o‘yin Arabistonning sharqiy qismida ham ommalashgan. 0 ‘yin qoidalariga bir qancha o‘zgartirishlar kiritilgan. Bu yerda ushbu o‘yin “ shatranj” nomini olgan. Vaqt o‘tib, bu o(yinni forslar ham o'ynay boshlaganlar. Aynan forslar o'yinga siz va biz bilgan “shaxmat” nomini berishgan. Shaxmat so'zining m a ’nosi - “shohmot”, ya’ni “shoh mag'tub bo’ldin, degan manoni anglatadi.







**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** “Mening maqsadim” mavzusida matn yarating.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________
*(imzo)* *(sana)*

## 14- dars STO’

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Rassomning yuksalishi**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Kundalik hayotimizda rassomlarning ishlarini
qayerlarda uchratishimiz mumkin?



Rassomning yuksalishi Siz sevib tomosha qiladigan " Oppog'oy va yetti gnom " , " Bembi" , " Mikki Maus" , " Uyqudagi malika" , " 101 dalmatin" va boshqa "Walt Disney Pictures" kompaniyasining multfilmlari taniqli amerikalik kinorejissor-multiplikator, rassom va prodyuser Uolt Disneyga tegishlidir. U 1901-yil 5-dekabr kuni AQShning Chikago shahrida dunyoga kelgan. Uning bolaligi baxtsiz hodisalar, ko'ngilsiz voqealar ichida o'tgan. Shunday damlarda onasi o 'g 'lini g'aroyib ertaklar aytib ovutardi. Ehtimol, shuning uchun ham Uolt sirli sarguzashtlar o'lkasiga kirib borgandir. U 12 yoshidan boshlab turli xil ertaklarga rasmlar, karikaturalar chizib, jurnal va gazeta tahririyatlariga olib boradi. Afsuski, bu m ashqlami birorta tahririyat qabul qilmaydi. Uning keyingi urinishlari ham besamar bo'lgach, u taqdirga tan berib, do'sti bilan hamkorlikda biznes boshlaydi. Bu unga yashash uchun yetarli daromad keltiradi. Amm o u sevimli mashg'uloti, karikaturalar chizishni davom ettiraveradi. Uning birinchi "Alisa mo'jizalar mamlakatida" nomli multiplikatsion asari muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Ammo bu Uoltning ruhini tushirmaydi. Aksincha, yanada ko'proq mehnat qilishga undaydi. Shu tariqa Mikki Maus, Donald Dakk, Guffi Dog kabi obrazlar dunyoga keldi. Bu qahramonlarni esa hamma birday yoqtirib qoldi. Endi butun dunyo ushbu obrazlarni sevib tomosha qilar, e'tirof etardi. Sevimli multiplikator 65 yillik umri davomida 29 marta " Oskar" mukofoti hamda 700 dan ortiq mukofot bilan taqdirlangan**.**

karikatura - tasviriy san'at turi, hajviy va kulgili qilib ishlangan rasm

1. Berilgan parchani o'qing. Uni davom ettiring. Uning bolaligi baxtsiz hodisalar, ko'ngilsiz voqealar ichida o'tgan. Shunday damlarda onasi o'g'lini g'aroyib ertaklar aytib ovutardi.
2. Berilgan parchadan oldingi voqeani so'zlab bering.

Sevimli multiplikator 65 yillik umri davomida 29 marta "Oskar" mukofoti hamda 700 dan ortiq mukofot bilan taqdirlangan.

3. Asar qahramoniga tavsif bering

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mazuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O'quvchilarni rag'batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** "Mening multfilmim" mavzusida kichik matn tuzing

**O'IBDO':** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Sana:** | | | | |
| **Sinf:** | | | | |

**Mavzu: Bo‘lim  yuzasidan takrorlash**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini  bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Har bir ustundagi so'zlardan  mosini tanlab olib,
maqollar tuzing va  mazmunini  izohlang.

| | | | |
|---|---|---|---|
| Daraxt | yo‘q | izlaganini | bor |
| Qunti | bir | baxti | ko‘karar |
| Ahdi | quvlagan | joyda | qurolmas |
| Iz | borning | qo‘ra | yo‘liqar |
| Yo‘l | yurgan | xazinaga | topar |

Tursunboy Adashboyevning she’riy topishmog'ini
o'qing va javobini toping.

O‘ng‘or tog‘da
O‘n kaptar.
Yovvoyiroq,
Jo‘n kaptar.
O‘ttiz uchta
Bolasi.
Donlar o‘n uch
Qorasi.

To'qqiztasi olmay tin,
Silab-siypar
Qanotin.
Uxlar qancha
Polapon?
O‘ylab ko'rgin,
Bolajon.

Berilgan bo‘g‘inlardan oldin va keyin shunday
bo'g'inlar qo'yingki, natijada ikkita so‘z hosil bo'lsin.




**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.
**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Bolim mavzusiga mos asar toping. Uni o‘qib, do‘stlaringiz bilan o‘rtoqlashing.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Sana:** | | | | |
| **Sinf:** | | | | |

**Mavzu: Bog'bon va nihol**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Qatorni davom ettiring:

Ona, volidam;
Ota, ______________________;
Bobo, ______________________;
Buvi, ______________________;
Bola, ______________________.

Bog‘bon va nihol

(Rivoyat)

Qadim zamonda bir bog‘bon bo‘lgan ekan. Ularning yakka-yu yagona farzandi bo’lib, juda tantiq ekan. Bog‘bon bolasiga tanbeh bersa, xotini o‘rtaga tushib: “Qo‘yavering, katta bo‘lsa, esi kirib qoladi” , - der ekan. Bog‘bon xotinining gapi xato ekanini tushuntirish uchun shunday yo‘l tutibdi: bog‘ga ikkita bir xil nihol ekib, ularga bir xil o‘git solib parvarishlabdi. Lekin nihollardan birining ortiqcha shoxlarini kesibdi, ikkinchisiga esa umuman tegmabdi. Oradan uch yil o‘tibdi, nihollar daraxtga aylanib, meva beradigan payti kelibdi. Shoxlari kesib turilgan nihol baland va chiroyli daraxt bo ‘lib, mevalari ham ko‘p ekan. Qaychi tegmagan niholning shoxlari esa har tomonga tarvaqaylab, qiyshiq bir daraxt bo’libdi. Bir-ikki mevasi esa maydaligidan ko‘zga tashlanmas ekan. Bog‘bon xotinini chaqirib, daraxtlarni ko‘rsatibdi va tushuntiribdi: “ Mana bu daraxtning ortiqcha shoxlarini kesib turganim uchun butun kuchi asosiy shoxlarga borib, serhosil bo‘ldi. Bunisi esa o‘z holiga tashlab qo‘yganim uchun meva bermaydigan, foydasiz daraxtga aylandi. Uning ortiqcha shoxlarini endi kesgan bilan foydasi kam. To‘g‘ri parvarishni niholligida qilish kerak edi”.

tanbeh - nojo'ya xatti-harakat uchun
berilgan ta ’zir, ogohlantirish
tarvaqaylab - har tomonga yoyilib





1. Rivoyat matnidan bog'bonning gaplarini topib o'qing.
2. Bog‘bonga ta’rif bering.
3. Rivoyat mazmuniga mos maqol ayting.
4. Rasmni ifodalovchi so‘z qo‘yib, maqollarni o‘qing.




**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Rivoyatni o'qing. Reja asosida qayta hikoya qiling.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Keksalarni hurmat qil**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Ortiqchasini toping.

Farzand, dilband, bola, keksa, o‘g‘il Bobo, buvi, mo‘ysafid, chol, keksa Momo, buvi, kampir, keksa, bobo

Keksalarni hurmat qil

Miltiqboy Xonnazarov

Keksa kishilarni, bolam, hurmat qil,
Ularni jon bolam, farishta deb bil.
Duosi ularning tuganm as boylik,
Senga so‘rab turar bir umr sog‘liq.
Ko‘rganda ularning qo’lini olgin,
Ko'nglini ko‘tarib, ahvolin so‘rgin.
Ularni taklif qilgin uyning to'riga,
Choy quyib uzatgin tolm as qo'liga.
Ma’nolar terib ol har bir so'zidan,
Nur yog‘ilib turar ular yuzidan.
Nasihatin tinglab, aytganini qil,
Yovuzlik ildizin bitta qo'ymay yul.



**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Rivoyatni o'qing. Reja asosida qayta hikoya qiling.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Oila baxti**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Topishmoqlarni toping. Topishmoq javoblaridagi so‘zlarning birinchi bo‘g‘inlaridan so‘z tuzing.






Ertak qahramonlariga ta’rif bering. Ertakni qismlarga ajrating. Har bir qismi uchun reja tuzing.

• Ertak voqealarining ketma-ketligini aniqlab o'qing.

a. Abik ham bir qishloqqa borib, tegirmonchinikida ishlay boshlabdi.
b. Qachon qarasa, urishganlaring urishgan, hech aka-ukaga o'xshamaysanlar. Qoch oldimdan, men o‘zim senlardan zo‘rg‘a qutuldim.
d. Tegirmonim bib-binoyi ishlab turgandi, sen kelding-u, buzildi-qoldi.
e. Bog'bonlikni boshlabdi. Ish boshlashi bilan hamma m evalar to ‘kila boshlabdi.
f. Bir zam o nlar Abik ismli boy yashagan ekan.
g. Iltimos, menga rahm ingiz kelsin. Qish keldi, mening esa boradigan joyim y o ‘q.
h. Abikning xosiyatsizligi haqidagi xabar hamma yoqqa tarqalib, hech kirn uni ishga olmabdi.
i. Abikning ko‘ngli xotirjam tortib, uyquga ketibdi. Uy egasi uning oldiga kelib so'rabdi.
j. Sen meni tanim aysan. Men shu xonadonni turli falokatlardan asrovchi baxti bo'laman.
k. Kechasi sigirni poylab yotib, ko‘zi ilinib uxlab qolibdi. Bir mahal turib qarasa...

Ertakni kelgan joyidan davom ettiring.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Ertak mazmuniga mos 3 ta savol tuzing.

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

**23- dars STO’**

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Ota – ona qalbi, ota- ona qadri. P. Mo'min**
**Maqsadlar:**
**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**FK - fanga oid kompetensiyalar**
FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya
FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.
**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**

Rasm asosida og'zaki gaplar tuzing.



Ota-ona qalbi,
Ota-ona qadri

Po'lat Mo'min

Quyosh berar issiqlik, nur,
Deymiz hayot asosi.
Ota-ona juda aziz,
Quyoshga teng bahosi.
Ota-ona aytgan har so‘z
Farzand uchun qarz-u farz.
Hech qayerda va hech qachon
Etmang dilin xijil, darz.
Bizlar uchun ayam aydi
Ular hatto nonini.
Ayamaydi, ayamagan
Hattoki o‘z jonini.
Agar chiqsa issig‘imiz,
Yonib ketar olovday.

Yuguradi tun-kun demay,
Shifokorga darrovda.
Yursa-tursa bizni o ‘ylar,
Quyosh qoyil ularga.
Yetkazishga urinadi
Bizni ilrrbu hunarga.
Doim quloq tutish zarur
Ota-ona qalbiga.
Dil so‘zimiz, - yetajakm iz
Ota-ona qadriga.
Ularning-chi, har doimo
Ko'ngli bo‘lar bolada.
Bizlarning ham yosh ko‘nglimiz
Bo‘lsin ota-onada.

xijil - ko'ngil g'ashligi
darz- yorilgan
She’rni partadoshingiz bilan birga ifodali o'qing.
Ota-onaga xos xislatlarni ayting.
Ota-onani xursand qiladigan 3 ta gap ayting.
She’r matnidan bitta harfni tushirib qoldirish yo‘li bilan yangisi hosil qilinadigan so'zlarni aniqlang.
Namuna: qarz- arz, kun - un

Maqolni o'qing va mazmunini izohlang.




**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.
**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** She’rni ifodali o‘qing

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ _______________

*(imzo)* *(sana)*

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Sana:** | | | | |
| **Sinf:** | | | | |

**Mavzu: Ona  qarz**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini  bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**



Ona qarzi

(Hind xalq ertagi)

Rafiq degan bola bo‘lgan ekan. Bir kuni u dadasining nimalardir yozayotganini ko‘rib, qiziqib so‘rabdi:- Dada, nima qilyapsiz? Hadeb nimalarni yozyapsiz? Dadasi shunday javob beribdi: - Hisobotlarni to‘ldiryapman, o‘g‘lim. Rafiq hali kichkina bo‘lgani uchun “ Hisobot” so‘zini tushunmas ekan. - “ Hisobot” nima degani, dada? - deb so'rabdi u.- Hisobotmi? - debdi dadasi o‘g‘liga qarab. - Buning ma’nosi shuki, men davlat ishini qilaman, qilgan ishim uchun davlat menga pul to ‘laydi. Lekin men qanday ishlar qilganimni, kimlarga qanday ishlar qildirganimni davlat qayerdan biladi? Shuning uchun men falon-falon ishlar bajarildi, shu ishlar uchun menga falon rupiya miqdorida pul to'lanishi kerak, deb qog‘oz to‘ldiraman. Ana shu qog‘oz “Hisobot” deyiladi.Buni eshitib, Rafiqning dilidan shunday o'yla r kechibdi: “ Dadam qilgan ishlari uchun davlatdan pul olar ekanlar, demak, men ham uyda qilgan ishlarim uchun oyimdan pul olishim kerak. Axir, ba’zida oyim kechalari ham ish buyurgan paytlari bo‘lgan-ku?” Shundan keyin Rafiq bir varaq qog‘oz bilan ruchka olibdi-da, o‘zicha shunday deb yozibdi:“ Oyimning Rafiqdan qarzi: Oyim Rafiqdan quyida keltirilgan miqdorda pul qarz bo‘lib, uni to ‘lab q o ‘yishi lozim: Bir oyda ukamni ovqatlantirganim haqi - 1 rupiya 00 paysa, Bir oyda do'kondan narsa xarid qilib kelganim haqi - 1 rupiya 00 paysa, Bir oyda non keltirib berganim haqi - 0 rupiya 80 paysa, Hammasi bo‘lib, 2 rupiya 80 paysa bo'ladi” . Rafiq “Hisobot” ni oyisi qand-shakar saqlaydigan javon ichiga tashlab qo‘yibdi. Ertasiga kelib o‘sha joyni qarasa, pul yotibdi! Rafiq shosha-pisha pulni olibdi-da, sanab ko‘ribdi. Roppa-rosa ikki rupiya sakson paysa. U o'zida yo‘q suyunibdi. Suyunmay bo'ladimi? Bu yoqdan “ Hisobot” yozdi, bu yoqdan mehnat haqi oldi. Lekin pul bilan birga oyisi bir qog‘oz ham qo‘ygan ekan. Rafiq qog'ozni olib undagi yozuvni o‘qiy boshlabdi: “ Rafiqning oyisidan qarzi: Rafiq oyisidan quyidagi miqdorda qarzdor bo‘lib, qarzini tezda to'lashi kerak: O‘n ikki yilgacha uni tarbiya qilish haqi - 0 rupiya 00 paysa, O‘n ikki yilgacha uni boqib, qomini to ‘y g ‘izish haqi - 0 rupiya 00 paysa, O‘n ikki yilgacha unga kiyimlar, sut, qatiq va boshqa mayda-chuydalar olib berish haqi - 0 rupiya 00 paysa,Hammasi bo'lib, 0 rupiya 00 paysa” .Rafiq hang-u mang boTib qolibdi. U yugurib borib, o ‘zini oyisining oyog‘iga tashlab: - Oyijon! Meni kechiring, ahmoqlik qilibman. Xato qilibman! - debdi yig'lamoqdan beri bo‘lib. - o'ylab qarasam, bir zamonda bajargan xizmatimni ham minnat qilibman. Lekin siz ko‘zimni ochdingiz, bo‘ynimdagi sizning qarzingizni umr bo'yi ham to ‘lay olmayman. Uncha-muncha qilgan ishlarim esa, bu qarzning mingdan biriga ham arzimaydi. Soddadil o‘g‘lining og'zidan bu gaplarni eshitib, onasi dil-dilidan suyunibdi va o‘g‘liga shunday debdi: - O‘g‘lim, halol bo‘l. Insofli bo‘l, hech kimga yomonlik qilma. Rostgo'y bo‘l. Birovlarning dilini og'ritguvchi dilozor bo’lma . Mening sendan tilagim shu. Rafiq: “Aytgan gapingizdan chiqmayman, siz o‘ylaganday odam bo'lishga harakat qilaman” , - deb oyisiga so‘z beribdi.

rupiya - pul birligi

Ertakdan topib o‘qing:

1. Ota va bola suhbatini;
2. Rafiqning onasiga yozgan hisobotini;
3. Onasining yozgan gaplarini;
4. Rafiqning onasi bilan suhbatini.

Ko'zimni ochdingiz, minnat qilmoq jumlalarining mazmunini izohlang.

Fikrni davom ettiring: Ona borki...

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Ertakni o'qing va mazmunini so‘zlab bering.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: G'aroyib tanlov**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Iste'dodli ijodkor Feruza Jalilova 1961-yilda Toshkent viloyatida tavallud topgan. Bolalar uchun " Mahallamiz bolalari" , " Bolajon" nomli s he'riy, " Mehr daraxti" kabi hikoyalar to 'plami nashr qilingan. "Tanlov" so'zining o'rniga yana qanday so'zni qo'llaymiz?





Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadimdamas, ayni kunlarda Toshkentning so‘lim mahallalaridan birida Fotima va Zuhra ismli opa-singillar yashar ekan. Fotima juda odobli, mehnatsevar qiz ekan. Ozoda kiyinar, xonasini sarishta tutar, o‘yinchoqlarini o‘ynab bo‘lgach, javonga chiroyli qilib terib chiqar, bog‘dagi rango-rang gul va rayhonlardan uzib, guldonga solib qo‘yarkan. Sochlarini silliq tarab, chiroyli turmaklab yurarkan.Singlisi Zuhra esa uning butunlay aksi bo‘lib, besh yoshga kirsa ham erkaligini tashlay demas ekan. Opasi Fotimani sensirar ekan. Buvisi Zuhraga: “ Fotima sendan katta, uni opa degin” , - desa, “ Uni opa desam, u ham meni opa desin” , - deya qaysarlik qilar ekan. Oyisiga, ovqatimni yedirib qo‘ying, deya xarxasha qilar, kiyimlarini tartibsiz yechib tashlar, sochlarini tarashga ham erinar ekan. Buvisi: “Yuz-qo‘llaringni, tishlaringni yuvib kel” , - desa,“ Kecha yuvdim -ku” , - deb turib olarkan. Xonasida shirinliklarning qog'ozlari, qo’l-oyoqlari singan, uzilgan o‘yinchog‘-u qo‘g ‘richoqlar sochilib yotarkan. Bir kuni buvisi qizlarni yoniga chaqirib, “Sarishta qiz” nomli tanlov o‘tkazish niyatida ekanini aytibdi. Tanlov shartiga ko‘ra kimning xonasidan ko‘p chiqindi chiqsa, o‘sha tanlov g olibi bo'lar ekan. Tanlov boshlanibdi. Buvisining ishorasi bilan opa- singil ishga kirishib ketishibdi. Zuhra bir zumda xonasidan bir chelak chiqindi yig‘ibdi. Fotima quruq qo‘l bilan chiqibdi va tanlov g'olibi bo‘la olmasligidan xafa bo'libdi. Zuhra esa xursand bo‘lgancha buvisining uni g olib deya e ’lon qilishini kutib turibdi.Lekin tanlov u kutgandek yakunlanmabdi. Buvisi Zuhrani emas, Fotimani g ‘olib deb e ’lon qilibdi.

so'lim - go‘za

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Asar mazmunini qayta hikoya qilib bering.

**O‘IBDO‘:** ________________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Merosga kim munosib?**
**Maqsadlar:**
**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**FK - fanga oid kompetensiyalar**
FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya
FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.
**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**

Merosga kim munosib?

(Rivoyat)

Qadim zamonlarda mo‘ysafid bo‘lib qolgan badavlat otalardan biri voyaga yetgan besh o‘g‘lini yoniga o'tqizib, o‘g‘rilik, poraxo‘rlik, kishi haqiga xiyonat, tuhmat qilish gunoh ekanini tushuntirib, bunga amal qilmaganlar jazoga tortilishi va merosdan mahrum qilinishini aytibdi.
Kunlar o‘tib, farzandlarining halolligini sinab ko'rish niyatida o‘g ‘illarini shahardan tashqariga sayilga olib chiqib, har yer-har yerga oltin solingan hamyonlarni tashlab qo'yibdi. Ayrimlari buni ko'rmagan bo‘lsa, ko'rganlari, otam buni sinash maqsadida qilgan bo‘lsa, ko'rib qolib merosdan mahrum etishi mumkin, deb olishga jur’at etmabdi.Ammo kenja o‘g‘li hamyonni ko‘rishi bilanoq qo‘liga olibdi-yu, atrofga olazarak ko‘z yugurtiribdi. Hech kim yo‘qligini sezgach, darhol ko'zdan g ‘oyib bo‘libdi. Buni kuzatayotgan akalaridan biri o‘z pokligini bildirish niyatida darhol otasiga bo'lgan voqeani ma’lum qilibdi. Bundan hayron bo'lgan ota sukutga tushibdi-yu, biror gap aytishga shoshilmabdi. Kechqurun o ‘g ‘illari jam bo'lib, voqeani surishtirayotganda, kenja o‘g‘il:- Mening sizlardan ajralib, kech qolishimning boisi shuki, hamyon ichida oltin tangalar borligini ko‘rishim bilanoq yo‘qotgan odamning ahvoli, buni nemashaqqatlar bilan topib, ne niyatlarda yig‘ganligi-yu, yo'qotgan chog‘dagi nolalari xayolimga kelib, uni topish uchun odam izi tushgan tom onga yugurdim. Egasi chiqmagach, ko‘pchilik orasida bir faqirga xayr qildim, - degan javobni aytibdi. Buni eshitgan ota: - Barakalla, ofarin, butun meros senga, - deganda, katta o‘g‘il:- Ota, axir, bu insofdan emas-ku! Yerdagi hamyonni men ham ko‘rgan edim, lekin

birovning haqi menga harom deb olmagan edim! Meros menga bo‘lmay, nega bunga bo‘ladi? - debdi. Shunda ota:- Sening olmasliging birovning haqidan q o ‘rqishing, rahm-shafqat, halollikdan emas, olganimni kimdir ko‘rsa-yu, bundan otam xabar topsa, merosdan mahrum qiladi, degan hisdan tug'ilgan. Kimdandir qo‘rqib, jinoyat qilmaslik bu poklikdan emas. Ukangning qilmishi esa qonuniy jazodan qo'rqqanligidan emas, ichki e’tiqoddan, insonlarga bo’lgan mehrdan, - deb javob bergan ekan...




ko‘zi oiazarak - ko‘zi besaranjom, alang-jalang

Ota va o‘g‘il suhbatini rollarga bo'lib o‘qing. Rivoyat qahramonlari haqida fikringizni ayting.

Rivoyatdagi asosiy g'oyani 2 ta gap bilan bayon qiling.

Ertakdagi ijobiy va salbiy xislatlami ajrating.

Rivoyat mazmuniga mos reja tuzing.

Maqollarni rivoyat mazmuniga bog‘lang.

1. Dili pokning ishi pok.
2. Tekin topgan mol yomon,Oxiri qo‘ymas omon.
3. Ota-ona duosi O‘tga, suvga botirmas.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Rivoyatni o‘qing va mazmunini sharhlab bering

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Bo'lim  yuzasidan  takrorlash**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini  bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Onalik  mehri

- Sendan  yuksak  nima  bor,  yulduz?
- Onalik  mehri.
- Sendan  keskir  nima  bor,  olmos?
- Onalar  qadri.
- Qaydan  olding  otashni,  quyosh?
- Ona  qalbidan.
- Po'lat,  qaydan  senda  zo'r  bardosh?
- Ona  sabridan.
- Senmi,  ko'klam  hayotbaxsh  fasl?
- Yo'q,  ona  izi.
- Senmi  totli,  shifobaxsh  asal?
- Yo'q,  ona  so'zi.
- Sendan  shaffof  ne,  tonggi  ziyo?
- Ona  boqishi.
- Yaratuvchi  senmi,  tabiat?
- Yo'q,  yo'q  onalar.
- Baxt  beruvchi  senmi,  hayot?
- Yo'q,  yo'q,  onalar.

So'zlarni o'z oʻrniga qoʻying va Alisher Navoiyning hikmatli so'zini oʻqing.

“Eng kishining burchlaridan muhim biri -hurmati ota-ona”.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** oʻtilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob oʻtkaziladi. Oʻtilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Oʻquvchilar topshiriqlarni bajarib, oʻtilgan mazuni qismlarga boʻlib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, oʻqituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbat kartochkalari bilan ragʻbatlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish**: “Mening oilam” mavzusida matn tuzing

**OʻIBDOʻ:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Nazorat ishi-7**
**Maqsadlar:**
**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**FK - fanga oid kompetensiyalar**
FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya
FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.
**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**
**1-TOPSHIRIQ — Matnni diqqat bilan o'qib chiqing va savollarga javob bering:**
**Matn:**
*Tong otganda Laylo bog'ga chiqdi. U daraxtlar orasida uchib yurgan qushlarni kuzatdi. Qushlar shod-hursand sayrab, chiroyli qo'shiqlarini aytishdi. Laylo ularning chiroyli sayrashlarini qadrlab, tabassum qildi. So'ng uyiga qaytib, bugun ko'rganlari haqida ota-onasiga hikoya qilib berdi.*
**Savollar**
**1) Matnda nechta gap bor?**
Javob: ____________
**2) Quyidagi gaplardan to'g'ri ketma-ketlikda joylashganlarini toping va harfini yozing:**
A) Laylo ota-onasiga hikoya qildi.
B) Laylo bog'ga chiqdi.
C) Qushlar chiroyli qo'shiqlar aytishdi.
D) Laylo qushlarni kuzatdi.
Javob: ____________

**3) Quyidagi so‘zlardan ma’nosi bir-biriga yaqin bo‘lganini belgilang:**
a) tong — ____________
b) shod — ____________
c) chiroy — ____________
Variantlar:
go‘zal, quvonch, tonggi, g‘amgin
Javob:
a) ___ b) ___ c) ___
**4-TOPSHIRIQ — Matn bo‘yicha qisqacha yozing:**
*Matn kim haqida va u nima qildi?* (2–3 satr)

---

---

---

**5-TOPSHIRIQ — So‘z boyligini oshiramiz**

1. *“Kuzatdi” so‘ziga yaqin ma’nodagi so‘z yozing:* ____________
2. *“Chiroyli” so‘zidan yangi so‘z yasang:* ____________

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.
**VI. Uyga vazifani e’lon qilish**: “Mening oilam”  mavzusida matn tuzing

**O‘IBDO‘:** _________________________ _______________ _______________
*(imzo)* *(sana)*

## 30- dars STO‘